

Mehnat munosabatlariga oid hujjatlarda (*mehnat yoki jamoat shartnomasi*) korrupsiyaga qarshi shartlarni kiritish, korrupsiya holatlari haqida xabar bergan xodimlarni rag‘batlantirish va ularni ta‘qibga olmaslik kafolatini belgilovchi ichki idoraviy hujjatlar haqida qisqacha ma‘lumot

1. Qo‘mitaning 2021-yil 22-apreldagi 202-son buyrug‘iga muvofiq, xodimlar bilan tuziladigan mehnat shartnomasi namunasiga korrupsiyaga qarshi kurashish va uning oldini olish bo‘yicha majburiyatlarni qayd etish masalalari kiritilgan.

2. Qo‘mitaning 2020-yil 4-dekabrda 386-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasining korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati”ning 32-bandida “Korrupsion holat haqida murojaat qilgan soliq organi xodimi himoyaga olinadi hamda uni qasddan ishdan bo‘shatish, lavozimini pasaytirish, kamsitish, bosim o‘tkazish hamda ta‘qib qilish kabi holatlarga yo‘l qo‘yilmaslik kafolatlanadi.” va 36-bandida “Soliq organlarida korrupsiya faktlari to‘g‘risida vijdonan xabar bergan xodimlar, agar bu ma‘lumotlar tasdiqlangan bo‘lsa, belgilangan tartibda rag‘batlantirilishi mumkin.” deb belgilab qo‘yilgan.

3. Qo‘mitaning 2022-yil 15-apreldagi 119-son buyrug‘i 2-ilovasiga muvofiq tasdiqlangan “Davlat soliq xizmati organlari, qo‘mita huzuridagi Kadastr agentligi, korxonalar va muassasalarda aloqa kanallari orqali korrupsiyaviy xatti-harakatlar to‘g‘risida kelib tushgan xabarlarini qabul qilish va ko‘rib chiqish bo‘yicha nizom”da aloqa kanallari orqali korrupsiyaviy harakatlar haqida o‘z xohishiga ko‘ra xabar bergan jismoniy va yuridik shaxs, xususan, davlat soliq xizmati organlari va qo‘mita huzuridagi tashkilotlar xodimi xabarning mazmunidan qat‘i nazar biron-bir javobgarlikka tortilmasligi belgilangan.